

bog`liqlikda namoyon bo`ladi. Shu bilan bir vaqtda ularning har biri ijtimoiy ongning aloxida sohasida huquq va huquqiy voqelikning xilma-xil hodisalari bilan uzviy bog`liqdir. Ongning bu shaklini huquqsiz tasavvur qilib bo`lmasinidek, huquqni ham huquqiy ongsiz aqlga singdirib bo`lmaydi. Biri ikkinchisidan kelib chiqadi, birdan oldin ikkinchisi yuz bergan bo`ladi, chunki bir holda huquq huquqiy ongning rivojiga yordam bersa, boshqa holda buning aksi bo`lib, huquqiy ong huquqning rivojiga, uning takomillashuviga ko`maklashadi va amalga kiritilishini ta`minlaydi. Ammo, ular o`rtasidaga mavjud uzilmas bog`liqlik, ularning har biri inson odatiga ta`sir qilishiga qaramasdan, huquq va huquqiy ongni bir-biriga o`xshatish uchun asos bo`la olmaydi. Ularning har biri alohida huquqiy hodisa sifatida, odamlar munosabatiga, o`zining tartibga solish xususiyatiga ta`sir etishi bilan farq qiladi. Masalan, huquqning odamlar munosabatlarga ta`sirining o`ziga xosligiga shundaki, uning normativ qoidalari umummajburiy xususiyatga ega. Bu - har kim huquqiy talabga bo`ysunishga majbur deginidir. Bo`ysunmaslik bo`lsa, huquqiy javobgarlik bilan bogliqdir.

Huquqiy ongga kelsak, uning tartibga solish ta`sir kuchi boshqa shaklda amalga oshiriladi. Gap shundaki, har bir huquqiy ko`rsatma huquqiy ong sohasi orqali o`tgandan so`nggina, aniq fe`l-atvorda yoki qilmishda amalga oshiriladi. Huquqiy buyruq, hamma vaqt, shaxsning ongiga murojaat qiladi, chunki odillikning ta`sir kuchi shaxsga qaratilgan buyruqni inson tomonidan anglab olib qabul qilinishiga qaratilgan. Inson huquqiy axborotni anglab qabul qilish, ruhiy tushunib yetishdek murakkab jarayonga duch keladi. Axir, huquqiy ong, mohiyati bo`yicha o`ziga xos «laboratoriyani» tashkil qiladi, unda huquqiy axborotni o`zlashtirish va qabul qilib olish bilan bog`liq bo`lgan murakkab jarayon kechadi. Huquqiy ongning bilib olish vazifasi, huquqiy talabga nisbatan, o`zining fe`l-atvor yo`lini ishlab chiqishdagi baholash fikriga yoki mulohazaga aylanadi. Boshqacha qilib aytganda, miyaning ichki fikrlash ishining butun jarayoni insonning o`z-o`zini boshqarishi, o`zini o`zi nazorat qilishiga, uning fe`l-atvori xususiyatini aniqlashga yordam beradi. Huquqiy talabni tushunishda, huquqiy bilim darajasi, adliya sohasidan xabardorligi, umumiy va shuningdek huquqiy madaniyatning saviyasi so`zsiz muhim ahamiyatga egadir. Huquq - qanday fe`l-atvor shaqlida (qonuniy yoki qonunsiz) amalga oshirilmasin, u hamma hollarda, avvalo, insonning ongiga qaratilgan bo`ladi, u orqali fe`l-atvorga uni tartibga solish ma`nosida ta`sir ko`rsatadi. Huquq va huquqiy ongning yuqoridagidek o`zaro ta`sirida, shu murakkab ijtimoiy hodisaning jamiyat munosabatlariga ta`sir kuchi va tartibga solish ta`sirining mohiyati namoyon bo`ladi. Huquqiy ong ijtimoiy ongning shunday sohasiki, uning qamrovida: tushuncha, taassurot, baholash, fikr yuritish kabi jarayonlarning huquq normalarigina shakllanib qolmasdan, balki huquqiy tizimning xilma-xil qismlari (hakam, hakamlar ishi, jazo berish huquqi, militsiya xizmati, notarial idoralar, prokuratura va boshqa ko`p sohalari) borasida tushunchalar yuzaga keladi.

Pirovardida - odamlar xulq-atvori tamoyiliga singib ketadigan, xilma-xil huquqiy hodisalarga jamiyat a`zolarining munosabati, huquq to`g`risidagi tushuncha, huquqiy bilim - yuqorida zikr etginimizdek shakllanadi. Huquqiy ong tushunchasi va turlari. Murakkab ruhiy hodisa bo`lgan huquqiy ong ikki qismga: huquqiy mafkura va huquqiy

ruhiyatga ajratiladi. Shu birliklarning har qaysisida huquqiy hodisalar o'ziga xos aksini topadi. Masalan, ulardan birida, huquqiy hodisalar ilmiy-tushunib yetilgan mafkura ko'rinishida aks etsa, ikkinchisida esa, huquqiy hodisaning tarkibiy qismlari, xilma-xil his qilish va holatlar shaklida namoyon bo'ladi. Huquqiy mafkura va huquqiy ruhiyatlarning o'ziga xosligi ulardagi mavjud umumiylikni va o'zaro ta'sirni mutlaqo inkor etmaydi. Chunki ular bir-birlari bilan chambarchas bog'langandir. Ularning biri ikkinchisini to'ldiradi, biri ikkinchisidan kelib chiqadi, shu tariqa huquqiy voqelik to'g'risida ilmiy asoslangan, tushunchani hosil qiladi. Huquqiy ong ruhiy tarkibining boyligi, uning odamlar xulq-atvoriga, ularning huquqqa munosabatiga ta'siri unga o'ziga xos kuch bag'ishlaydi.

Huquqiy mafkura - har xil huquqiy hodisalar haqidagi nuqtai nazar, tushuncha, g'oya va qarashlarning ilmiy umumlashtirilgan tizimidan iboratdir. Huquqiy ongning huquqiy mafkura qismida aksini topgan huquqiy hodisalar huquqqa bag'ishlangan maxsus nazariy izlanishlarda o'z rivojini topib, ilmiy darajada anglab yetiladi.

Bunday ilmiy asarlarning mazmuni odamlar ma'naviy mulkiga aylanib, ularning ongiga aniq huquqiy bilimlarni, mulohazalarni, e'tiqod va kayfiyatni olib kiradi. Insonning ongida huquqni bilib olish jarayoni, yuqorida zikr qilganimizdek yoki shunga yaqinroq tarzda kechadi. Odamning huquqiy ong jarayonini bilib olish vazifasi tufayli huquqni so'llashda, sud ishlarida, qonuniylik va qonun to'g'risida axborot olinadi. Shunday axborotlar asosida huquqiy madaniyat darajasi ko'tariladi, odamning huquqiy bilimi rivojlanadi va teranlashadi. Insonning huquqiy fe'l-atvori qandayligi, pirovardida uning huquqiy madaniyati darajasiga, huquqiy bilimining kengligi va teranligiga bog'liqdir. Huquqiy mafkura - shaxsning huquqiy ongini ilmiy asosda shakllantira borib, huquqqa, odamning huquqqa bo'lgan munosabatiga hal qiluvchi ta'sir qiladi.

Huquqiy ruhiyat - ong doirasidagi huquqiy hodisalar bilan bog'liq holda, ongda yuzaga keladigan va unga singib ketgan his, kechinmalar sohasini ifodalaydi. Huquqiy ruhiyat - huquqiy hodisalarni hissiyot bilan tiklash sohasidir. Odam hissiz, o'z-o'zidan o'ylamasdan fikr qiladigan mashina emas - u, nafaqat fikr qiladigan, balki sezadigan tirik zotdir. Shuning uchun, u ijtimoiy hodisalarni, jumladan huquqiy hodisalarni ham, nafaqat aql bilan, balki sezgi bilan ham tushunib etadi.

Huquqiy hodisalarni tushunib yetish jarayoni odamning ishtirokisiz rivojlana olmaydi, shu sababli unda tabiiy tarzda g'oyaviy va hissiy jarayonlar qo'shilib, chatishib ketadi. Misol uchun, loyihalalanayotgan qonun mazmuni bilan oddiy tanishib chiqish, unda har xil hayajonlanishni (shodlanish va qanoatlanishdan, anglashilmovchilik va achinishgacha, chuqur xafa bo'lishgacha) keltirib chiqaradi yoki to'lqinlanishga olib keladi. Odam o'zining ruhiy holatiga ko'ra huquqni oyoq osti qilish, noqonuniylik, zulm va inson erkini kamsitish bilan bog'liq bo'lgan salbiy huquqiy voqeliklarga befarq, loqayd qola olmaydi. Uning huquqiy kechinmalari va kayfiyati g'azab, qahr va norozilik sezgilarida namoyon bo'lib, ijtimoiy-huquqiy hayotning manfiy hodisalariga tanqidiy qarash uchun hissiy asos yarata borib, insonparvarlik g'oyalari negizida, odamda qayta tuzishga intilish tug'diradi.

Huquqiy ong chegarasida har qanday bilimning shakllanishi idrok etish jarayonini teranlashtira borib, ular aks ettirgan hodisalarni o'zlashtirishda hissiy tus oladi. Huquqni takomillashtirishda xuddi shu inson hissiyoti (buni eslatib o'tish joiz) oldingi o'rinlardan birida turadi. Jamiyatda ijtimoiy odillikka erishishga qaratilgan va hissiy tus berilgan talablar kuchiga ishonish uchun qullikni bekor qilish, tabaqaviy imtiyoz va chegaralash, irqiy kamsitish, qonun oldida hamma fuqarolarning konstitutsiyaviy tengligini tan olish kabilarni eslashning o'zi kifoya. Huquqiy ong sohasida kechadigan fikrlash jarayoni odamlar talabini va manfaatini ifoda etuvchi inson hissiyoti bilan yo'g'rilgan yoki shu hissiyotdan tuzilgan. Huquqiy ong sohasida vujudga keladigan huquqiy g'oyalar, tushunchalar va taassurotlar, aql va sezgining shunday noaniq chalkashib ketishi oqibatida, odam fe'l-atvorini tartibga solishda katta ta'sirchan kuchga ega bo'ladi. Shuning uchun, huquqiy ongni o'rganishga katta ahamiyat beriladi. Huquqiy ongning tuzilishi tahlili, bir tomondan, huquqiy mafkura va huquqiy ruhiyat kabi uning tabiiy tarkibiy qismlarining o'zaro ta'siri tabiatini va o'zaro nisbatini ochadi, boshqa tomondan, ijtimoiy hayotda butun hodisa sifatida uning vazifasini ochib berishga yordamlashadi. Huquqiy fan huquqiy ong sohasini ijtimoiy va shaxsiy turlarga ajratadi. Ammo bu chegaralash, ularning o'rtasidagi dialektik o'zaro bog'liqlikni mutlaqo inkor etmaydi. Huquqiy ongning har bir turini, nisbatan mustaqilligini tan olgan holda, ularga xos bo'lgan xususiyatlarni ochadigan huquqning umumiy nazariyasi, ularning ikkalasi ham jamiyat hayoti mahsuli bo'lganligi uchun, ularning birligini yagona ijtimoiy hodisalar sifatida tan olishdan kelib chiqadi. Ijtimoiy ong huquqiy ongning yanada yuqoriroq darajasi hisoblanadi, chunki unda huquqiy voqelikka xos bo'lgan hamma xususiyatlar mujassamlashgan. Uning mazmuni huquqni bilishda va hayotga tadbiiq qilishda odam tafakkurining ijodiy yutuqlari va ijtimoiy-huquqiy amaliyoti bilan sug'orilgan. Shaxsiy huquqiy ongga kelsak, u o'z mazmuni bilan uncha katta hajmli va keng emas. Bundan tashqari, u, huquqiy tafakkur tarixida to'plangani uchun, huquqiy bilimlar yig'indisini qamrab ola olmaydi. Shaxsiy huquqiy ong bilish imkoniyatlari jihatidan bir qadar cheklangan. Hammaga ma'lumki, har bir odamning hayoti alohidadir. Bir shaxsda huquqiy bilim olish imkoniyati katta bo'lsa, boshqasida kamroq. Birinchisining huquqiy ong darajasi yuqori bo'lsa, ikkinchisniki - past. Shuning oqibatida, shaxsiy huquqiy ong har xil rivojlanish darajasiga ega. Ma'lum darajada, huquqiy ong darajasi jamiyat a'zolarining huquqiy ma'lumotlariga ham bog'liqdir. Shunga ko'ra, fuqarolarning huquqiy madaniyat darajasini ko'tarishga ko'mak beradigan huquqiy axborot tizimini tashkil qilish masalasi alohida amaliy ahamiyat kasb etadi. Huquqiy madaniyat tushunchasi, tuzilishi va funksiyalari. Huquqiy madaniyatning darajasiga qarab, huquqiy ong uch turga ajratiladi: oddiy, ilmiy va kasbiy. Oddiy huquqiy ong, odatda, o'z-o'zidan vujudga keladi va odamning shaxsiy tajribasi va huquqiy hodisalar bilan bog'liq bo'lgan hayotiy vaziyatlar haqidagi tushunchasi bilan belgilanadi. Bunga - odamning ishga joylashuvidagi yoki oliy o'quv yurtiga kirish qoidalari yoki yo'l qoidasini buzgani uchun javobgarligi haqidagi bilimlar misol bo'la oladi. Shaxsiy tajriba, kundalik hayotning chegarasida kechib - tor bo'lganligi uchun, huquqiy ong juda chegaralangandir. Huquqiy ong bizni o'rab turgan borliq haqidagi oddiy

tushunchalar chegarasida muttasil qola olmaydi va doimo rivojlana borib, tabiiy ijtimoiy qonuniyatlar darajasiga chiqadi, shu bilan nazariy, ilmiy tushunchaga aylanadi. Ilmiy huquqiy ong ijtimoiy huquqiy-haqiqatni u yoki bu darajada to'g'ri aks etti ruvchi bilimlar tizimini o'z ichiga oladi. Ilmiy huquqiy ong huquqni ijod qilish faoliyati-ning birinchi darajali manbai bo'lgani uchun huquqiy amaliyotni takomillashtiradi. Unda huquqiy nazariya va huquqiy g'oyalar, tasavvurlar va tushunchalar tizimi bilan bir qatorda, huquqshunoslarning kasbiy huquqiy ongi ham ajratiladi. Huquqshunoslarning huquqiy ongi qonunga bo'ysunuvchi fuqarolarning huquqiy mulohazalaridan huquqiy norma va nuqtai nazarlari bilimining teranligi hamda katta hajmi va eng muhimi, huquqshunoslar huquqning qoidalari va normalarni qo'llashni bilishi bilan farq qiladi. Huquqshunoslar huquqqa, shuningdek uning amalda qo'llanishiga kasbiy malaka bilan yondashadilar. Bu qonunchilik bilan yuqori darajada mos kelishni, huquqni qo'llash foydaliligini va uni chuqur tushunish zarurligini ko'zda tutadi. Kasbiy huquqiy ong huquqiy oliy o'quv yurtlarida o'qish natijasida shakllanadi, so'ngra, huquqiy amaliyot jarayonida sayqallanadi. Huquqiy ong - huquqni takomillashtirish va rivojlantirish omili. Huquqiy ong - jamiyat ongining tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy hayot rivojida katta ahamiyatga egadir. Huquqiy tizimda biron-bir soha topilmaydiki, unga huquqiy ong o'zining tartibga solish ta'siri bilan kirib borgan bo'lmasa. U huquqiy tizimning normativ asosidan boshlab, huquqiy tashkilotlar faoliyatida huquqni takomillashtirish va rivojlantirish jarayoniga qo'shilib, bu bilan jamiyatda qonunchilikni va huquqiy tartibni mustahkamlaydi. Huquqiy ongning bu qadar ko'p qirraliligi va ko'p qamrovliligi uning ijtimoiy tabiatining qonuniy ko'rinishidir. Axir, ijtimoiy tizimning tarkibiy qismi sifatidagi huquqiy tizimning mavjudligini huquqiy ongdan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi. U huquqiy tizimning tarkibiy qismlarini bevosita yaratadi, takomillashtiradi, vujudga keltiradi, mustahkamlaydi va uning xilma-xil qismlarini rivojlantiradi, odamlar munosabatini tartibga solishga xizmat qiladi. Huquqiy tizimning asosi huquqiy normativ hujjatlar (qonunlar, qonun asosidagi hujjatlar) hisoblanadi. Bu hujjatlarni yaratish, normalarni ijod qilish faoliyatini amalga oshiruvchi alohida organlarga tegishlidir. Umummajburiy huquqiy normalar yaratish jarayonining o'zi oson emas. U huquqiy normani yaratishda ijtimoiy talab va manfaatyi anglab yetish va o'rganish, qonun loyihalarini ishlab chiqish, ularni muhokama qilish, qabul qilish va qabul qilingan hujjatlarni fuqarolarga yetkazish bilan bog'liqdir. Bu murakkab, norma ijod qilish jarayonining har bir bosqichi, sohasida har bir qabul qilingan hujjatni anglab yetish huquqiy ongning bevosida ishtirokida kechadi. Yaratilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar ijodkorlarining umumiy, huquqiy va kasbiy madaniyati darajasi qancha yuqori bo'lsa, ular yaratgan hujjat ham shuncha mukammal bo'ladi. Shuning uchun huquqni ijod qilish jarayoni qatnashchilariga, huquqiy ongni takomillashtirish uchun, shu sohaning yuqori darajali mutaxassisi bo'lishdek yuqori talab qo'yiladi. Ammo, huquq ijod qilish jarayonida faqat shu kasb bo'yicha tayyorlangan odamlargina qatnashmaydilar. Demokratik davlatlarda qonun loyihalari jamiyatning o'zi tomonidan muhokama qilinadi. Masalan, hozir amaldagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yoki 1996 yilda Oliy Majlis qabul qilgan Mehnat kodeksi

loyihasining qator muhokamalari ko'pchilikning qiziqishi va xohishini hisobga olib qolmasdan, ularning huquqiy ong darajasini ham aniqladi. Bundan tashqari, umumiy muhokama jarayonida aholining jalb qilinishi fuqarolarning huquqiy ongini ko'tarish, uning huquq ijodkorlik faoliyatidagi salmog'ini oshirishda ham foydalidir. Huquqiy ong huquqni nafaqat yaratadi va takomillashtiradi, balki rivojlantiradi ham. Uni hayotga tadbiiq etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Biroq, uning chegarasida bo'lib o'tadigan huquqiy talablarni anglab olish jarayoni unchalik oddiy bo'lmay, ancha murakkabdir. Huquqiy talablarga ong munosabatining bir xil bo'lmasligi shaxsning nafaqat real hayotida, balki ziddiyatli fe'l-atvorida o'zgaradi. Har bir davlatga uyushgan jamiyatdagi qonunbuzarlik shundan dalolat beradi. Huquqiy ong darajasida shaxsning o'zining huquqiy bilimlari ko'lami ham, huquqni qabul qilish holati ham, ma'naviy o'sganligi ham shaksiz ko'zga tashlanadi. Huquqiy ongga faqatgina yuqorida sanab o'tganlarimiz ta'sir etib qolmay, yana boshqa ko'p omillar ham (jumladan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, maishiy) o'z ta'sirini o'tkazadi. Odamlarning bir-birlari bilan o'zaro ta'siri va munosabati, muhiti, tarbiyasi, axloqiy darajasi ham kam ta'sir qilmaydi. Ijtimoiy-huquqiy yo'l-yo'riq huquqni baholash, uning talablariga munosabat, o'ta xilma-xil omillar majmuining ta'siriga bog'liq holda ongda shakllanadi. Shuning uchun, huquqiy talablarga bo'lgan, salbiy yoki ijodiy holatning o'zi ham har xilligi bilan farq qiladi. Masalan, bir odamning qonuniy fe'l-atvori uning axloqiy ongi bilan ta'riflansa, boshqasi faqat yuridik javobgarlik oldidagi qo'rquv tufayli o'zini to'g'ri tutadi. Shaxsning fe'l-atvorida qayd qilingan nozik farqlar, huquqiy ong tabiatining o'zi naqadar murakkabligini yaqqol ko'rsatadi. Shuning uchun, shaxsning huquqiy bilimni kengaytirib va teranlashtirib qolmasdan, balki unda huquqning haq talablari izidan borishini anglab etishida va unda ichki ishonch shakllanishiga yordam beradigan, huquqiy tarbiya bo'yicha to'g'ri yo'lga qo'yilgan faoliyat zarurdir. Huquqni amalga kiritishga, demak jamiyatda huquqiy tartib o'rnatishga yordam beruvchi, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tartibga chaqirish kabi tuyg'ular faqat shunday sharoitdagina rivojlanadi. Huquqiy talablarga rioya qilmaslik, albatta huquqiy tartibning buzilishiga olib keladi. Xuddi shuning uchun, huquqiy ongning yuqori darajada rivojlangan bo'lishi, huquqiy tarbiyaning muhim masalasiga aylanadi. Bu, demak, fuqarolarning huquqiy bilimlarini maqsadli rivojlantirish, huquqqa zo'r e'tibor bilan qarash, uning ijtimoiy qimmatini tushunish demakdir. Shaxsning huquqiy bilimlari ko'lami, nafaqat uning huquqdan xabardorligi, bilish darajasiga bog'liq, balki huquqiy talablarga munosabatiga ham bog'liqdir. Chunki, ongda axborotlarning ijobiy yoki salbiy qabul qilinishiga qarab, muttasil anglab yetish jarayoni kechib turadi. Huquqqa hurmatsizlik bilan salbiy (nigilistik) munosabatda bo'lish, axloqqa qarshi fe'l-atvor bilan bog'liqdir. Huquqiy tarbiyaning vazifasi, odamlarning ongida huquqning ahamiyatini, maqsadini to'g'ri tushunishni, uning talablarining haqiqatligini, ularga ongli ravishda rioya qilish zarurligini shakllantirishdan iborat. Huquqiy tarbiya tushunchasining metodologik asoslari. Huquqiy madaniyat serqirra tushunchadir. U huquqiy ong qismlaridan biri bo'lib, u eng avvalo, odamlarning qonunga munosabatlarini ifodalovchi qarashlar va e'tiqodlardan, ularning huquq haqidagi tasavvurlari intilishlari va tuyg'ularidan iborat. Shaxs u yoki bu

huquqiy munosabatga kirishar ekan, ongli ravishda uning oqibatini bilib harakat qiladi. Agar huquqiy ong shaxs ruhiyati orqali qonunning tub ma'nosini tushunib, uni qabul qilish xususiyatini o'rnata olgan bo'lsa, huquqiy madaniyat bu jarayonni amalga oshirish ifodasi bo'lib hisoblanadi. Agar huquqiy ong bilan huquqiy madaniyat yuqori saviyada bo'lib, bir xil ta'sir kuchiga ega bo'lsa, huquqbuzarlik, qonunga rioya qilmaslik yoki nojo'ya harakatlar sodir etilmaydi. Har bir shaxsning huquqiy ongi uning qonun normalariga munosabatidan, ularni qabul qilish xususiyatlaridan, qonunni qo'llash, unga rioya qilish tushunchalaridan kelib chiqadi. «Biz, – dedi I.A. Karimov, – odamlarning eskicha psixologiyasini o'zgartirib, ularda yangi huquqiy ongni shakllantirmog'imiz lozim. Shunday bo'lsinki, har bir kishi erkinliklari – ayni vaqtda muayyan burch, majburiyat va mas'uliyat ekanligini chuqur his etib tursin». Huquqiy madaniyatning darajasiga qarab huquqiy ong uch turga ajratiladi: oddiy, ilmiy va kasbiy. Oddiy huquqiy ong, odatda, o'z-o'zidan vujudga keladi. Odamning shaxsiy tajribasi va huquqiy hodisalar bilan bog'liq bo'lgan hayotiy vaziyatlar haqidagi tushunchasi bilan belgilanadi. Masalan: insonni ishga joylashishi, kollej yoki oliy o'quv yurtiga kirish qoidalari yoxud yo'l harakati qoidasini buzganlik uchun javobgarlik haqidagi bilimlari. Ilmiy huquqiy ong ijtimoiy hayotni, huquqiy voqelikni u yoki bu darajada to'g'ri aks ettiruvchi bilimlar tizimini o'z ichiga oladi. Ilmiy huquqiy ong huquqqa amal qilish faoliyatini ijodiy tahlil etib, huquqiy amaliyotni takomillashtirishga ko'maklashadi. Masalan, qonun loyihalarini tayyorlashda ekspert huquqshunos olimlar ishtirok etib, qonunning mukammal bo'lishiga hissa qo'shadi. Kasbiy huquqiy ong huquqiy o'quv yurtlarida o'qish natijasida shakllanadi, so'ngra huquqiy amaliyot jarayonida takomillashtiriladi. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jamiyat, mansabdor shaxslar va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishni talab qiladi. Shuning uchun huquqiy davlatning muhim belgisi – huquqiy madaniyatdir. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun keng ko'lamlı demokratik islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu esa fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Jamiyatda kishilar qanchalik yuqori madaniyatli bo'lsa, huquq normalarini bilsa, qonunlarni, yuridik adabiyotlarni bilib, ularga amal qilsa, huquq buzilishi ham shunchalik kam bo'ladi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasida aholining huquqiy madaniyatini oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi» qabul qilindi. Unda mamlakat miqyosida aholining huquqiy madaniyatini rivojlantirish va huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy tarbiyani yaxshilash, ommabop yuridik adabiyotlarni ko'paytirish, xalqning yuridik sohadagi bilimlarini oshirishga katta e'tibor qaratilib, jamiyat huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Huquqiy tarbiya – fuqarolarga huquqiy bilimni singdiruvchi muhim ijtimoiy faoliyatdir. Tarbiya jarayonlarining yo'nalishlarini farqlashda qo'llaniladigan muhim mezonlardan biri – ong shakllarining turlicha ekanligi. Chunki, alohida olingan tarbiya jarayonlarining har qaysisi, inson ongining hamma tomonlarini emas, faqat uning ayrim ko'rinishlarini qamrab oladi. Masalan, siyosiy tarbiya – siyosiy ongni; ma'naviy tarbiya – ma'naviy ongni; estetik tarbiya – estetik ongni

qamrab oladi va h.k. Huquqiy tarbiya ongning o'ziga xos ko'rinishi bo'lgan huquqiy ong bilan bog'liq. Huquqiy tarbiya ikki xil vazifani bajaradi. Birinchisi – tarbiyalanuvchilarga ma'lum miqdordagi huquqiy bilimlar, ko'nikmalar va malakaning berilishi. Ikkinchisi – tarbiyalanuvchilarda huquqiy g'oyalar, hissiyotlar, e'tiqodni shakllantirish. Shu vazifalardan kelib chiqib, huquqiy tarbiyada fuqarolar huquqiy ongini shakllantirish quyidagicha kechadi: – birinchidan, asosiy huquqiy qoidalar tizimini bilish, ularning mazmunini va mohiyatini to'g'ri tushunish; – ikkinchidan, huquqni, qonunlarni, qonuniylik va huquqiy tartibotni chuqur hurmat qilish; – uchinchidan, huquqiy bilimlarni amalda mustaqil qo'llay olish; o'rtinchidan, o'z odatlarini olingan huquqiy bilimlar bilan moslashtirish; – beshinchidan, huquqiy normalarni har qanday buzishlarga nisbatan qat'iy murosasizlik ko'nikmasini hosil qilish. Huquqiy tarbiya jarayoni odamlar orasida muayyan munosabatlar orqali amalga oshadi. Shu bois huquq bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar huquqiy tarbiya doirasiga kiradi. Unda tarbiyalanuvchilar (shaxslar, ijtimoiy guruhlar) huquqiy ongining shakllanishi ro'y beradi. Huquqiy tarbiya jarayonida kishilarning muayyan huquqiy bilim darajasiga ega bo'lishiga erishish maqsad qilib qo'yiladi. Ularning shaxsiy e'tiqodidan kelib chiqadigan qonunga, huquqqa bo'lgan hurmatni shakllantirish huquqiy tarbiyaning o'zagini tashkil etadi. Demak, huquqiy tarbiya – shaxslar va ijtimoiy guruhlarning huquqiy ongiga ko'rsatiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan, boshqariladigan, oldindan rejalashtiriladigan va maxsus ishlab chiqilgan huquqiy tarbiya usullari vositasida amalga oshiriladigan pedagogik ta'sir jarayonidir. Jamiyatning huquqiy kamoloti mamlakat aholisining huquqiy savodxonlik darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy faol va yuksak madaniyatli insonga xos bo'lgan fazilatlardan biri huquqiy madaniyatga ega bo'lishdir. Umumiy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan huquqiy madaniyatning negizini huquqiy ong, huquqiy tafakkur tashkil etadi. Huquqiy ong shaxsning jamiyatdagi o'rnini belgilaydi, jamiyat a'zolarining huquqiy ongi qanchalik yuqori bo'lsa, huquqiy normalarda belgilangan talablarning bajarilishi ham shunchalik to'liq va aniq bo'ladi. Huquqiy madaniyatni yuksaltirish uchun, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya, boshqacha aytganda huquqiy ma'rifatni takomillashtirish zarur. Huquqiy ma'rifatning asosiy maqsadi shaxsda huquqiy ongni shakllantirish, ya'ni huquqiy normalarning mazmun-mohiyatini bilish, ularga hurmatni va ixtiyoriy, ongli ravishda rioya qilishni tarbiyalash bo'lib, u bosqichma-bosqich berilishi lozim. Zamon shiddati jadal, dunyo ham, undagi jamiyatlar ham tez o'zgarimoqda. Biz esa ko'p yillar davomida bu o'zgarishlar shiddatini quvib yetolmadik. Albatta, odamlarimizning ongi, dunyoqarashi o'zgardi. Ammo huquqiy madaniyat darajasi kutilganidek yuksalmadi. Bu bir qancha omillarga bog'liq. Huquqiy madaniyatimizning naqadar nochorligi, ayniqsa, biron favqulodda vaziyat yuzaga kelganda bilinib qoladi. Marketing maqsadlarida o'tkazilayotgan turli tadbirlarda yoki yo'llarda yuzaga kelgan tirbandliklarda, navbatda turganda yoki birov bilan u yoki bu masallarda ahdlashuvlarga rioya qilish jarayonida huquqiy madaniyatimiz o'z "qiyofasini" namoyon qilib qo'yadi. Biz oddiygina navbatda turish yoki maxsus yo'lakchadan piyodani o'tkazib yuborishni

bilmaymiz. Aholida huquqiy ongning etarli emasligi oqibatida maishiy korrupsiyani to'liq yo'qota olmayapmiz. Korrupsiya noqonuniy harakat ekanini hamma biladi, ammo oddiy fuqarodan yuqori mansabli amaldorlargacha pora oldi-berdisi ustida ushlanayotgani achinarli holdir. Bularning bari, avvalo, qonunni bilmaslik, qolaversa, bilib turib ham uni mensimaslik, rioya etmaslik oqibatidir. Huquqiy tarbiya oilada, bog'chada, maktabda, litsey-kollejlarda va oliy ta'lim muassasalarida olib borilishi kerakligi shubhasiz. Lekin tarbiya faqat bilim berish bilan cheklanmaydi. Tarbiya shu bilimlarni amalda qo'llash, ulardan foydalanishni ham o'rgatishi kerak.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Davlat va huquq nazariyasi.- X.Odilqorievning tahriri ostida. - T.: O'zbekiston faylasuflari jamiyati, 2011.
2. A.Saidov. Davlat va huquq nazariyasi. I-II tom T.: Adolat, 2002 y.
3. X.Odilqoriev. Davlat va huquq nazariyasi. T.: Adolat, 2009 y.
4. X.Muxamedov. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. T.: Adolat, 1999 y.
5. Mo'minov A., Tillaboyev U. Inson huquqlari. Darslik. – T.: TDYUI, 2013.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING HAYOTI VA FAOIYATI, IJOD YO'LI O'RGANISH

Atamurodova Qunduz G`aniyevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang`ich ta`lim metodikasi kafedrası

Ona tili va adabiyoti fani o`qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammd Boburing hayoti , faoliyati ijodi , uning shoh va shoir sifatida qilgan ishlari tasnifi bayoni keltirilgan. Bobur lirikasi avlodlarga qoldirgan boy ilmiy merosi haqida so`z yuritiladi.*

Kalit so`zlar: *Hayot yo`li, tazkira, tarix , lirika, ilmiy faoliyat ,Boburnoma, g`azal , ruboiy.*

KIRISH

Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, faoliyati va merosini o'rganish XVI asrning avvalidan boshlangan edi. Boshqacha qilib aytganda, bu qutlug' ishni Boburning o'zi «Boburnoma»da boshlab bergan edi. Shundan so'ng Movarounnahr, Afg'oniston va Hindistonda yozilgan tazkira va tarixiy asarlarda Bobur haqida ma'lumot berish kuzatiladi. Bu jihatdan Boburning qizi Gubadanbeginning «Humoyannomas, Muhammad Haydaming Tarixi Rashidiy kabi asarlar aynisa, diqqatga sazovordir. Chunki bu mualliflar Bobur bilan bevosita milogorda bo'lib, uning faoliyati, shaxsiyati va fazilatlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni keltirganlar. Bunday ma'lumotlar shu yerda Buxoroda Hasanxoja Nisoriy tomonidan yozilgan «Muzakkiri abbobda ham bor. Hindistonda Akbarshoh, Jahongirshoh, Shah Jahan hukmdorligi davrida yaratilgan tarixiy asarlar va tazkiralarda Bobur haqida ham ma'lumotlar keltirilgan ("Akbarnomas va boshqalar. Keyinchalik, xususan, XVIII asrdan boshlab, Bobur hayoti, faoliyati va merosi bilan qiziqish Evropada han jonlanib ketdi. Uning «Boburnomasiga bo'lgan ehtirom tufayli

ADBIYOTLAR TAHLILI

XIX asrda ingliz (Elfinston, Erskin, Beverid), fransar (Pave de Kurteyl) tillariga tarjima qililib bosildi. Rus olimi N. Ilminskiy esa Boburnoma»ning asl nusxasini nashr ettirdi. Bunday hot XX asrda ham davom endi. Jumladan, fansung ein Ferraged Grenand "Bobur», Amerikalik yozuvchi Harold Lamb Bobur-she' asarlarini yaratdilar. Fernand Grenardning asari keyinchalik nemis (1931 y.) va turk tillariga (1970 y.) tarjima qililib, nashr ettirildi. Boburnoma»ning bevosta o'zbek tilidan fransuz (Bakye Grammon, 1980 y.) va ingliz (V.M.Sekson, 1996 y.) tillariga yangi tarjimalari maydonga keldi. Afg'onistonlik olimi Shafiqa Yorgin Bobur she'riy merosining nisbatan to'liq nusxauni tuzib, kata tadqiq bilan birga 1983 yilda Devoni Zahiriddin Bobur nomi bilan Kobulda nashr ettirdi. Rus olimas! IV. Stebleve Bobur she'riyati (g'azallari) ga oid risolasini yaratdi.

XX asrning 20-80 yillar orasida mamlakatimiz O'zbekistonda ham Bobur hayoti, faoliyati ya merosini o'rganish sohasida ma'lum ishlar amalga oshirildi: uch jildlik asarlari nashr ettirildi, tadqiqotlar yaratildi. Bu sohada Yahyo G'ulomov, Vohid Zohidov, Homil Yoqubov, Porso Shamslev, Sabchat Azimjonova, Aziz Qayumov, Hamid Sulaymon, Saidbek Hasanov, B. Vallxo'jaev va boshqalarning katta hissasi bor. Pirimqul Qodirov, Barot Boyqobilovlar esa Bobur haqida roman va dostonlar yaratdilar. Xalqaro Bobur Jamg'armasining tuzilgani ham alohida e'tiborga molikdir.

Hayot faoliyati, adabiy merosi. Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yil 14 fevralda Farg'ona viloyatining hokimi temuriyzoda Umarshayx mirzo oilasida dunyoga keldi. Bu vaqtda Umarshayx mirzoning poytaxti Axi (qadimiy Axsikat) edi. Umarshayx mirzo (tav-1455-Samarqand-vaf. 1494-Axi) Movaromatir va Xuroson podshosi Abu Said Mirzoning o'g'li bo'lib, Boburning yozishicha, ravon savodi bor edi. Xamsaray va masnaviy kitoblarni o'qub edi. Aksar «Shobnoma» o'gur edi Tab'l nazmil bor edi, vale she'rg'a parvo qilmas edi. Shunday bo'lsa-da, Boburning ta'kidiga ko'ra, Umarshayx mirzoda mulkgirlik dag'dag'asi kuchli edi.

Boburning onasi Qutlug' Nigor xanim bo'lib, u Yunusonning qizi edi. Bobur Umarshayx mirzo allasidagi sakkizta farzandning (uch o'g'il va bosh qiz) kattasi bo'lib, temuriyzodaning davidagi udamiga ko'ra tarbiyalandi, Andijonda tahsil oldi. Shuning uchun otasi 1494 yilda Axsida fojiali tarzida olamdan o'tganda Bobur Andijonda edi. Bobur yozadi: «Umarshayx mirzog'a bu voqea (ya'ni, fojiali o'lim) dast berganda men Andijonda chahorbog'da edim (Boburnoma, 72-bet). 1494 yilda 12 yoshida Farg'ona viloyati taxtiga o'tirgan Bobur umrining oxirgacha (1530) viloyatdorlik Cok (Farg'ona), mamlakatdorlik (Kobal) hamda saltanatdorlik (Agra-Hindiston) bilan mashg'at bo'lib, Hindistonda hoburiylar saltanatiga (1526-1858) asos soldi.

Albatta, bunday davlatdorlik ishlari o'z-o'zicha bo'lgan emas, turli xildagi ixtiloflar, ba'zan suiqasd uyushtirishlar, gohida g'alaba nash'asi, gohida esa mag'lubiyat o'kinchlari; uni tushunmasliklar va boshqalar ham sodir bo'lgan edi. Bunday hollarni Boburnomasni sinchiklab mutolaa qilgan har bir kishi aniq tasavvur eta oladi. Bobur bularning hammasini mustahkam irodasi va ezgulikka orishish uchun chin ko'ngildan va g'ayrat bilan harakat qilgani tufayli engib o'tdi. Natijada Bobur yirik va qobiliyatli davlat arbobi sifatida tinchlik-osoyishtalik, bahamjihatlik, adolatni o'rnatish, obodonchilik, madaniyat, ta'lim va adabiyotni rivojlantirish uchun o'zining nodir qobiliyatini ya tashabbuskorligini safarbar etdi. Shuning uchun Boburning davlat arbobi sifatidag ulug' ishlari XVI asrning o'zidayoq Farly Hiroty (Ravzat us-salotin). Abulfayz Allomly («Akbarнома»), Gulbadanbegim («Humoyunnomalar tomonidan yuqori baholandi. XX asr zabardast jamoat arbobi, Hindistonning bosh vaziri Javohirla'l Neru ham Boburning faoliyatini yuksak darajada taqdirlab, o'zining «Jahon tarixiga bir nazar asarida shunday yozadi: «Boburning 1526 yilda Dehlida g'alaba qozonishi bilan Hindistonda yangi bir cave maydonga kelib, yangi bir saltanat tashkil bo'ldi. Bobur eng donishmand va dilbar shaxslardan biri edi. U mazhabiy taassub, qoloqliq va qisqa fikrlikdan tamoman uzoq odil edi. Bobur san'at va adabiyotni